Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o'rni" mavzus...

materiallar to'plami

SIFAT BO'YICHA MILLIY MUKOFOTLAR – SIFATNI DOIMIY YAXSHILASHNING MEXANIZMI SIFATIDA

Andijon mashinasozlik institute, MSMSM yo'nalishi 3-kurs talabasi
Mamajonova Muxlisa

Annotatsiya. Ushbu tezisda mahsulot sifatini boshqarish mexanizmida milliy mukofotlarni ahamyati. Edvards Deming nomidagi Yaponiya hukumatining mukofoti, uning Yaponyada sifatni rivojlantirish uchun qo'shgan ulkan hissasi, AQSHning Malkolm Baldrij nomidagi sifat bo'yicha milliy mukofoti va Yevropaning sifat bo'yicha mukofoti Yevropa biznesining rivojlanishini yanada mustahkamlash haqida ma'limot berilgan.

Kalit so'zlar: Sifat, mahsulot sifati, milliy mukofot, Edvard Deming nomidagi mukofot, Malkolm Baldrij nomidagi mukofot, Yevropaning sifat bo'yicha mukofoti, sifatning statistik nazorati.

Sifat-obiyektdan,uning real mavjudligidan ajratib bo'lmaydigan muhim belgilarni ifodalaydigan falsafiy kategoriyadir. Sifat-obiyektni tarkibiy qisimlarini o'zro turg'un munosabatlarini aks ettiradi,bu munosabatlar bir obiyektni ikkinchi obiyektdan ajratib turadigan o'ziga hos tomonlarini anglatadi.[1]

Sifat tufali bir obiyekt boshqa obiyektdan farq qiladi. Shu bilan birga sifat bir turdagi obyektlarga xos umumiylikni ham ifodalaydi.

Maxsulot sifatini boshqarish mexanizmi o'zaro bir-biri bilan bog'liq boshqaruv obyektlari va subeyktlari majmui, mahsulot hayot siklining turli bosqichlari va sifatni boshqarishning turli darajalarida foydalaniladigan boshqaruv tamoyillari ,usullari va funksiylaridan iborat. U sifatni boshqarishning asosiy funksiyalarini samarali amalga oshirishni taminlashi zarur, bular qatoriga eng avvalo quydagilar: [2]

- bozor ehtiyojlarini,mahsulotning texnik darajasi va sifatini prognozlash;
- mahsulot sifatini taminlash (oshirish)ni rejalashtirish;
- mahsulot sifatiga talablarni meyorlash va standartlashtirish;
- mahsulotni ishlab chiqarish va ishlab chiqarishga qo'yish;
- ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash;
- xom ashyo, materiallar, yarimfabrikatlar va butlovchi buyumlarni etkazib beruvchilar bilan ishlab chiqaruvchi korxonalar va maxsulot iste'molchilari o'rtasida mahsulot sifati bo'yicha o'zaro munosabatlarni tashkil etish;
- maxsulot hayot siklining barcha bosqichlariga mahsulot sifatining rejalashtirilgan darajasi barqaror bo'lishini taminlash;
- mahsulot sifatini nazorat qilish va sinash;
- ishlab chiqarish jarayonida baraklarning oldini olish;
- mahsulot,texnologik jarayonlar, ish joylari, bajaruvchilar va boshqalarni ichki ishlab chiqarish attestatsiyasidan o'tkazish;
- mahsulot, ishlar, xizmatlar sifat va ishlab chiqarish tizimini sertifikatlash;
- erishilgan sifat darajasi uchun rag'batlantirish va javobgarlik;
- mahsulot sifati bo'yicha ichki ishlab chiqarish hisoboti va hisobga olish;
- mahsulot sifati o'zgarishini texnik- iqtisodiy taxlil qilish;
- mahsulot sifatini boshqarishni huquqiy ta'minlash;
- mahsulot sifatini boshqarishni axborot bilan ta'minlash;

Published: 10.11.2023

Cite this article: Mamajonova Muxlisa (2023). Sifat bo'yicha milliy mukofotlar – sifatni doimiy yaxshilashning mexanizmi sifatida. Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/448

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

- mahsulot sifatini moddiy-texnik ta’minlash;
- mahsulot sifatini metrologik ta’minlash;
- kadrlarni maxsus tayyorlash va malakasini oshirish;
- mahsulot sifatini boshqarishni tashkiliy ta’minlsh;
- mahsulot sifatini boshqarishni texnologik taminlash;
- mahsulot sifatini boshqarishni moliyaviy ta’minlash;

Biror bir maxsulotni baholash, umumiy bo‘lgan sifat boshqaruvi tarkibi va tamoyillaridan kelib chiqqan mezonlar tizimiga asoslanadi.

Mezonlar tizimi, odatda sifat bo‘yicha ko‘rik tanlovlarni o‘tkazish uchun ishlab chiqiladi. Shu kungacha mavjud bo‘lgan Sifat bo‘yicha mukofotlardan eng mashxurlari bu Yaponya hukumatining Edvards Deming nomidagi sifat bo‘yicha mikofoti (1951 yilda ta’sis etilgan), AQSHning Malkolm Baldrij nomidagi milliy mukofoti (1987 yilda ta’sis etilgan), Yevropaning sifat bo‘yicha mukofoti (1992 yilda ta’sis etilgan) va Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari (MDH) orasida Rossiya Federatsiyasining sifat sohasidagi davlat mukofoti (1996 yilda ta’sis etilgan) bo‘lib, muntazam ravishta tanlovlar o‘tkazilib g‘oliblarga mukofotlar taqdim etilib kelinmoqda.

Edvards Deming nomidagi Yaponiya hukumatining mukofoti, uning Yaponyada sifatni rivojlantirish uchun qo‘shgan ulkan hissasi uchun 1951 yilda ta’sis etilgan bo‘lib, bu davrga kelib Yaponya sanoatida sifatni nazorat qilish allaqachon keng qo‘llanila boshlagan edi. Sifatning statistik nazorati (SQC-Statistical Quality Control)ga asoslanib, ba’zi Kompaniyalar CWQC- Company Wide Quality Control/ Umumiy Sifat Nazorati Kompaniyasiga o‘tib ulgurishgan edilar.

E.Deming nomidagi mukofot bilan taqdirlangan Yaponya kompanyalari aynan CWQCni ishlab chiqarishga samarali joriy etish orqali yuqori natijalarga erishib, nafaqat Yaponya sanoatida, balki dunyo sanoatida ham etakchilikni egallab kelmoqda.

AQSHning Malkolm Baldrij nomidagi sifat bo‘yicha milliy mukofoti

Ushbu mukofot 1987 yilda AQSH Prezidenti Ronald Reygan tomonidan ta’sis etilgan. Mukofot ta’sis etilguniga qadar 1982 yildan boshlab ushbu mukofotga davogarlar faoliyatlarini baholash mezonlrini ishlab chiqish – American Society for Quality Control (ASQC) / Amerika Sifat Nazorati Jamiyati tomonidan shaxsan R. Reyganning qatiy talabi, qo‘llab-quvvatlashi va amaliy yordami tufayli amalga oshirilgan.

Ushbu mukofotni ta’sis etishdan maqsad, AQSH kompniyalari ishida sifatni mohiyatini oshirish edi. Mukofot talablariga ko‘ra, mukofot olmoqchi bo‘lgan kompaniya sifatni oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari va ularning natijalri tog‘risida nashriyotda e’lon qilinishi orqali boshqa kompaniyalarga ma’lum qilishi shart.

Yevropaning sifat bo‘yicha mukofoti

Yevropa biznesining rivojlanishini yanada mustahkamlash maqsadida, Yevropa sifatini boshqarish fondi (The Evropean Foundation for Quality Management – EFQM), Yevropa Sifat tashkiloti(The Evropean Organization for

Quality – EOQ) va Yevropa komissiyasi (The Evropean Comission) hamkorligida 1992 yilda “YEvropaning sifat bo‘yicha mukofoti “ (The Evropean Quality Award – EQA) ta’sis etilgan. 1980 yillarning boshida Yevropa kompaniyalari biznesda o‘z joylarini saqlab qolish uchun yo‘l qidira boshlashdi. Bu esa raqobat bardoshlikni asosiy omili hisoblangan sifatga katta e’tibor berishni talab etardi. Bu faqatgina maxsulot yoki xizmat sifatini yaxshilash bilan chegaralanib qolmasdi. Yetkazib berish, adminstratsiya qilish, buyurtmachiga xizmat ko‘rsatish kabi kompaniya faoliyatining boshqa aspektlarida ham sifat e’tiborga olinardi. TQMning barcha talablarini amalga oshira borib, ko‘pkina Yevropa kompaniyalari o‘z boshqaruvi va boshqa ish jarayonlarini yaxshilay boshlashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.M. Toshpo‘latov, Q.A.Sharipov “Mahsulot sifatini boshqarish” Toshkent - 2013
2. Чернова О. А., Бростилов С. А. Сравнительный анализ премий в области качества // НиКа. 2010. №. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelnyy-analiz-premiy-v-oblasti-kachestva (дата обращения: 04.04.2023).

VIRTUAL TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING TASHKILIY-TUZULMAVIY MODELINI YARATISH.

Murodova Aziza Yorqin qizi, Jizzax politexnika instituti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada virtual ta’limning metodik imokoniyatlarini shakllantirishning mazmuni va vazifalari, Virtual ta’lim muhiti va virtual texnologiyalar vizual tasvirlarni ob’ektiv haqiqat bilan bog‘lash uchun yangi omillarni yaratib, bular makon ko‘lami, vaqt ko‘lami, vaqtning teskari aylanishi, real bo‘lmagan vaziyatlarni modellashtirish singari omillar bilan tavsiflanadi..

Kalit so‘zlar: Virtual ta’lim texnologiyasi, Virtual ta’lim muhiti, Virtual o‘quv muhiti, Interaktivlik, Virtual ta’lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar

Kirish. Talabalar an’anaviy usuldagi har qanday ta’limga qaraganda ancha boy va murakkabroq bo‘lgan yangi aloqa vositalari tomonidan yaratilgan “o‘ziga xos” bilim maydonida yashaydilar. Axborotlashuv ustuvorliklarining paydo bo‘lishi bilan virtual ta’lim asta-sekin o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaytishi mumkin. Multimedia ta’lim mahsulotlarini joriy etish nafaqat ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi, shuning uchun o‘quv jarayoni bevosita ijtimoiy muassasadan tashqarida, balki “kompyuter bilan” yakka tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Virtual ta’limning, shuningdek, umuman insonni tarbiyalashning asosiy maqsadi - insonning real dunyoda o‘z taqdirini, shu jumladan virtual tarkibiy qismini aniqlash va unga erishishdir. [1]

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Avvalo, ushbu kontseptsiyani tushunish va talqin qilishni chalkashtirib yuboradigan “virtual ta’lim” atamasining ikki tomonlama tushunilishini ta’kidlash kerak. Virtual ta’lim deganda nafaqat masofaviy telekommunikatsiya ta’limi, balki “ta’lim sub’ektlari va ob’ektlarining o‘zaro ta’siri jarayoni va natijasi, ularni yaratish bilan birga, o‘ziga xosligi ushbu ob’ektlar va sub’ektlar tomonidan aniq belgilanadi”[2]. Tasavvur qilish mumkinki, birinchi tushuncha virtual muhit tomonidan olib boriladigan “virtual ta’lim” ning tor ma’nosini o‘z ichiga oladi.

“Virtual ta’lim” ning ikkinchi tushunchasi keng ma’noda virtual maydon, o‘zaro ta’sir sub’ektlarining o‘zaro ta’sirini belgilovchi virtual ta’lim maydoni, tashuvchisi turli xil elektron va og‘zaki, bosma aloqalar bo‘lgan virtual ta’lim maydoni sifatida ta’riflanadi. Agar biz ta’limni ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayoni deb hisoblasak, u virtual jarayon bo‘ladi: “Agar bir yoki bir nechta o‘zaro ta’sir qiluvchi ob’ektlar (talaba, o‘qituvchi) faoliyatning o‘zaro ta’siri sub’ektlari sifatida harakat qilsalar, u holda bu o‘zaro ta’sir ularning virtual manbai bo‘ladi. Bir xil sub’ektlarning ushbu o‘zaro ta’sirdan oldingi holatidan farq qiladigan holat” [3].

Ya’ni, ta’lim jarayonini amalga oshirish virtual muhitni qayta qurishdir. Ammo, haqiqiy jamiyatdagi ta’lim haqiqiy institutning barqaror maqomiga ega bo‘lganligi sababli, bizning vazifalarimiz faqat zamonaviy tadqiqotlarda ta“limni virtualizatsiya qilish deb ataladigan mavjud virtual jarayonni virtualizatsiya qilish tavsifini o‘z ichiga oladi.